



## BANK VA BANK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH HAMDA UNING ISTIQBOLLARI

**Meliqulov Sherbek Furqat o'g'li**

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan banklar va ularning faoliyati haqida ma'lumot berish bilan birga bank faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar haqida ma'lumot beradi. Bundan tashqari bank tizimi to'g'risida xorij mamlakatlarining tajribasi va bugungi kundagi bank faoliyatiga oid o'zgarishlar va ularning istiqbollari o'rganilgan.*

**Kalit so'zlar:** *bank, bank tizmi, tijorat banklar, chakana banklar, bank guruhлари, bank hisobvarag'i, davlat banklari, Markaziy bank, xususiy bank.*

O'zbekistondagi bank faoliyatida olib borilayotgan izchil va maqsadli islohotlar uning nafaqat jahon moliyaviy inqirozining salbiy ta'siri va oqibatlaridan ishonchli tarzda himoyalinishiga, balki banklar faoliyatida muhim va sifat o'zgarishlariga erishish, iqtisodiyotning real sektorini kreditlash hajmini kengaytirish hamda bank va moliya xizmatlarini ko'rsatish darajasini tubdan yaxshilash imkonini berdi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 151-moddasida "O'zbekiston Respublikasining bank tizimi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidan va banklardan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki pul-kredit va valyuta siyosatini ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki mamlakatda banklar faoliyatini tartibga solishni amalga oshiradi, bank va to'lov tizimlarining barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki o'z vazifalarini bajarishda mustaqildir.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tashkil etish tartibi qonun bilan belgilanadi" deb ko'rsatib o'tilganligi be'jiz emas.

Mamlakatimiz bank tizimining barqaror va ishonchli faoliyat yuritishi, uning jahon moliya bozoridagi nufuzi ortib borishi, shuningdek mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lidagi dadil qadamlarimiz dunyo jamoatchiligi, shuningdek qator nufuzli xalqaro moliya tashkilotlari tominidan e'tirof etilmoqda. Bunda ayniqsa banklarning kapitallashuv darajasini oshirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar diqqatga sazovordir. Agar raqamlarga murojaat qiladigan bo'lsak, so'ngi 6 yil ichida bank tizimining umumiy kapitali 4,4 barobardan ziyodroqqa o'sdi. 2013 yilning o'zida tijorat banklari umumiy kapitali 25 foizga ko'paydi. Bu davrda bank ustav kapitalini oshirish maqsadida 534,5 mlrd so'mlik bank aksiyalari investorlar orasida joylashtirildi. Shuni ta'kidlash kerakki respublikamizda yirik banklarning kapitallashuv darajasini oshirish ko'pgina xorij mamlakatlari amaliyoti bo'yicha asosan banklarning likvidlik ko'rsatkichini saqlab turishga emas, balki banklarning investitsiyaviy faolligini kuchaytirishga, iqtisoddagi tarkibiy o'zgarishlarning ustuvor yo'nalishlarini qayta



tiklash va kengaytirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga qaratilgan kreditlash hajmini oshirishga qaratildi.

O‘zbekiston Respublikasining **“Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”**gi qonunining maqsadi bank faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Ushbu qonunga ko‘ra bank — bank hisobvaraqlarini ochish va yuritish, to‘lovlarni amalga oshirish, omonatlarga (depozitlarga) pul mablag‘larini jalb etish, o‘z nomidan kreditlar berish bo‘yicha bank faoliyati sifatida aniqlangan operatsiyalar majmuini amalga oshiruvchi tijorat tashkiloti bo‘lgan yuridik shaxs;

banklar guruhi — moliya institutlarining yuridik shaxs bo‘lmagan birlashmasi bo‘lib, bunda asosiy bank boshqa moliya institutlarini nazorat qiladi;

bank hisobvarag‘i — bank tomonidan shartnomaga muvofiq mijozga ochilgan hisobvaraqlar bo‘lib, unga ko‘ra bank mijozning hisobvarag‘iga tushayotgan pul mablag‘larini qabul qilish va hisobga kiritish, mijozning hisobvarag‘idan tegishli pul mablag‘larini o‘tkazish hamda berish va hisobvaraqlar bo‘yicha boshqa operatsiyalarni amalga oshirish haqidagi topshiriqlarini bajarish majburiyatini zimmasiga oladi;

bankning barqaror moliyaviy holati — bankning moliyaviy oqimlar mutanosibligini, to‘lov qobiliyatini, likvidligi va rentabelli faoliyatini saqlab turish uchun mablag‘larning yetarliligini, shuningdek barcha prudensial normativlar bank tomonidan bajarilishini ifodalovchi holati.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bank faoliyati sohasini tartibga soluvchi va litsenziyalash, tartibga solish hamda prudensial nazorat bo‘yicha vakolatlarni amalga oshiruvchi davlat organidir.

Banklarning bir nechta turlari mavjud bo‘lib, ularni faoliyati va funktsionalligi bo‘yicha tasniflash mumkin:

- Chakana banklar — bu jismoniy shaxslar va kichik biznesga bevosita xizmat ko‘rsatadigan banklar

- Tijorat banklari — bu korporativ mijozlarga moliyaviy xizmatlar ko‘rsatadigan va yirik kredit operatsiyalarini amalga oshiradigan banklar

Banklar mulkchilik shaklida ham farq qilishi mumkin:

- Davlat banklari — bu butunlay davlatga tegishli banklar
- Xususiy banklar — bu jismoniy shaxslar yoki kompaniyalarga tegishli banklar

- Aralash banklar — bu xususiy va davlat kapitali birlashtirilgan banklar.

Bank tizimi — bu pul mablag‘larini saqlash va qayta ishlash bilan shug‘ullanadigan, o‘z mijozlariga kreditlar va boshqa xizmatlarni taqdim etadigan banklar va boshqa moliya institutlari to‘plamidir. Bank tizimi iqtisodiy infratuzilmaning asosiy elementi bo‘lib, moliyaviy operatsiyalarning uzluksiz ishlashini ta‘minlaydi.

Turli mamlakatlarda bank tizimi turli xil tuzilishga ega bo‘lishi mumkin. Ammo odatda bank tizimi bir necha darajalarga bo‘linadi. Birinchi darajada mamlakatning bank tizimini tartibga soluvchi Markaziy banklar mavjud. Markaziy bank foiz stavkalarini belgilash, pul massasini tartibga solish, boshqa banklarni nazorat qilish kabi



funktsiyalarni bajarishi mumkin. Keyingi bosqichda mijozlarga xizmat ko'rsatadigan va depozitlarni qabul qiladigan, kreditlar beradigan va hokazo tijorat banklari mavjud.

Yana bir daraja mintaqaviy banklar bo'lib, ular mahalliy jamoalar uchun moliyaviy xizmatlarni taqdim etish orqali bitta mintaqada yoki shtatda ishlashlari mumkin. Ba'zi mamlakatlarda, shuningdek, bitta korxonada xodimlari yoki bitta jamoa aholisini o'z ichiga olishi mumkin bo'lgan ittifoq a'zolari uchun moliyaviy xizmatlar ko'rsatadigan kredit uyushmalari bo'lishi mumkin.

Bank asboblardan foydalanish to'g'risidagi eng qadimgi guvohnoma miloddan avvalgi 2000 yilda Mesopotamiyada topilgan. O'sha paytda banklar oltin va kumush kabi qimmatbaho narsalarni saqlash uchun xizmat qilishgan. Vaqt o'tishi bilan banklar qarzlarni va kreditlarni berishni boshladilar. Uyg'onish davrida bank ishi yanada rivojlandi. Bank uylari juda yuqori obro'ga ega bo'ldi.

XIX asrda bank sektori yanada jadal rivojlana boshladi. Sanoat inqilobining boshlanishi kreditlash hajmini oshirishni talab qildi va kredit berish uchun yirik banklar tashkil etildi. O'shandan beri bank tizimi o'zgaruvchan iqtisodiy sharoitlarga mos ravishda rivojlanishda davom etmoqda.

Bank tizimi tarixidagi eng muhim davrlardan biri bu 1929 yildagi inqiroz. Ushbu inqiroz banklarning global qulashiga sabab bo'ldi. Ko'pgina banklar o'z eshiklarini yopishga majbur bo'lishdi, bu esa bank tizimining qisqarishiga olib keldi. Ikkinchi jahon urushi davrida dunyoning barcha asosiy kuchlari iqtisodiyotga faol aralashishga majbur bo'ldilar va bank tizimini jadal tartibga solishni boshladilar.

20-asrning oxirida bozor iqtisodiyotiga sodiq qolgan mamlakatlarning aksariyati bank tizimini to'liq tartibga solishdan voz kechishdi. Bu banklarga raqobatbardosh bo'lish va yuqori daromad olish imkonini berdi. Biroq, bank tizimi hali ham xavf ostida. So'nggi paytlarda davlat tomonidan xatarlarni nazorat qilinadigan darajada ushlab turishga qaratilgan nazorat kuchaymoqda.

Bank tizimi o'sishda va rivojlanishda davom etmoqda, bu bizga kredit kartalaridan tortib elektron hisoblagacha bo'lgan ko'plab vositalarni taqdim etadi. Bank tizimi bu qadimdan rivojlanib kelib, hozirgi kunda ham mijozlariga xizmat ko'rsatish va o'z faoliyatini takomillashtirib kelayotgan sohalardan biri hisoblanadi. Chunki davlat tayanadigan asosiy tayanch ustunlardan biri bu - bank va moliya sohasi hisoblanadi.

Hozirgi vaqtdagi bank xizmatlari ko'rsatishning umumiy shartlari, vositachilik haqi, tariflar va bank xizmatlari ko'rsatganlik uchun foiz stavkalari to'g'risidagi axborot ochiq axborot bo'lib, ular bankning rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

Banklar mijozlarning murojaatlarini ko'rib chiqish tartib-taomilini o'z ichiga olgan tartibga ega bo'lishi shart. Mijozlarning murojaatlari bankka kelib tushgan kundan e'tiboran o'n besh kundan kechiktirmay, qo'shimcha o'rganish va (yoki) tekshirish, qo'shimcha hujjatlarni so'rab olish talab etilganda esa bir oygacha bo'lgan muddatda ko'rib chiqilishi va yozma yoki elektron shaklda javob berilishi kerak.

Mijozlarning murojaatlarini ko'rib chiqish natijalariga oid hujjatlar kamida uch yil saqlanishi kerak.



Bank tizimiga bog'liq bo'lgan ko'plab mamlakatlar tizimlari mavjud bo'lib, ulardan eng rivojlangan ya'ni Amerika Qo'shma Shtatlarining bank tizimi o'rganilganda Amerika Qo'shma Shtatlarining markaziy bank tizimi Federal rezerv tizimi deb ataladi, 1913-yilda Federal zaxira to'g'risidagi qonunning qabul qilinishi bilan, asosan, bir qator moliyaviy vahimalarga, xususan, 1907-yilda kuchli vahimaga javoban yaratilgan. Vaqt o'tishi bilan Federal zaxira tizimining roli va mas'uliyati kengayib, uning tuzilishi rivojlandi. Buyuk Depressiya kabi voqealar tizimdagi o'zgarishlarga olib keladigan asosiy omillar edi. Federal rezervning rasmiy hujjatlariga ko'ra, bugungi kunda uning vazifalari mamlakatning pul-kredit siyosatini yuritish, bank institutlarini nazorat qilish va tartibga solish, moliya tizimining barqarorligini ta'minlash va depozitariy institutlar, AQSh hukumati va xorijiy rasmiy institutlarga moliyaviy xizmatlar ko'rsatishdan iborat.

Valyuta nazorati idorasi (OCC) 1863-yildagi Milliy valyuta qonuni bilan tashkil etilgan AQSh federal agentligi bo'lib, Qo'shma Shtatlardagi barcha milliy banklar hamda xorijiy banklarning federal filiallari va agentliklarini nizomlash, tartibga solish va nazorat qilish uchun xizmat qiladi. Tomas J. Karri 2012-yil 9-aprelda 30-valyuta nazoratchisi sifatida qasamyod keltirdi.

Oddiy biznesda banklarning birlashishi ko'plab sabablarga ko'ra sodir bo'ladi, masalan, ikkala bankning operatsiyalarini soddalashtirish mumkin bo'lgan yagona yirik bankni yaratish; boshqa bank brendlarini sotib olish; yoki regulyatorlar tashkilotni xavfli va noto'g'ri biznes amaliyoti yoki etarli darajada kapitallashuv va likvidlik tufayli yopishlari sababli. Qo'shma Shtatlarda banklar bankrot bo'lmasligi mumkin. Depozit hisobvaraqlari FDIC tomonidan 2008-yil oktyabr holatiga ko'ra har bir bank uchun har bir jismoniy shaxs uchun 250 000 AQSh dollarigacha sug'urtalangan. Muvaffaqiyatsiz bo'lish xavfi ostida bo'lgan banklar FDIC tomonidan qabul qilinadi, vaqtincha boshqariladi, so'ngra sotiladi yoki boshqa banklar bilan birlashtiriladi. FDIC regulyatorlar tomonidan musodara qilingan institutlar va o'z zimmasiga olgan muassasalarni ko'rsatadigan banklar ro'yxatini yuritadi.

Mamlakatimizdagi banklar faoliyatini rivojlantirish bo'yicha 2020 yil 12 mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5992-sonli "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi.

Farmon bilan 2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi, O'zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish bo'yicha "Yo'l xaritasi" hamda strategiyani amalga oshirishning maqsadli ko'rsatkichlari tasdiqlandi.

Mazkur Strategiya Markaziy bank va Moliya vazirligi tomonidan Jahon banki bilan hamkorlikda mamlakat bank tizimining joriy holatini o'rganish natijalari bo'yicha asosiy xulosalar va tavsiyalar, shuningdek xorijiy davlatlarning moliya sektorini transformatsiya qilish tajribasi hamda moliya sohasidagi xalqaro tendensiyalarni inobatga olgan holda ishlab chiqildi.



Strategiyada bank tizimida hozirgi kunda saqlanib qolayotgan muammo va dolzarb masalalarga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan:

bank tizimida davlatning yuqori darajadagi ishtiroki natijasida moliyaviy va inson resurslaridan samarasiz foydalanilayotganligi, ularda korporativ boshqaruv va tavakkalchiliklarni boshqarish tizimlari to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi;

davlat ishtirokidagi banklarning ustuvor dasturlar, sohalar va davlat ulushiga ega korxonalariga bozor stavkalaridan kam bo'lgan stavkalarda kreditlar ajratuvchi an'anaviy "taraqqiyot banklari" vazifasini bajarishi;

kreditlashning yuqori sur'atlarda o'sib borayotganligi va buning natijasida banklarning barqarorlik darajasini ifodalovchi likvidlilik va kapital yetarlilik ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir etayotganligi;

imtiyozli kreditlar ulushining yuqori darajada saqlanib qolayotganligi natijasida moliya bozorida narx signallarining noto'g'ri shakllanishi, shuningdek pul-kredit siyosatining transmission mexanizmlarining ishlashiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganligi;

yuqori darajadagi dollarlashuv, shuningdek kredit va depozitlarning yirik korxonalar va iqtisodiyotning alohida sohalarida jamlanganligi (konsentratsiyasi) natijasida bank tizimining valyuta, kredit va likvidlilik xatarlariga bardoshlilikining zaifligi;

davlat ishtirokidagi banklar biznes-modellarining asosan korporativ mijozlarga xizmat ko'rsatishga yo'naltirilganligi, nobank moliya tashkilotlarining roli sustligi, shuningdek innovatsiyalar va axborot tizimlarining yaxshi rivojlanmaganligi sababli moliyaviy ommaboplik darajasining pastligi tizimda tub islohotlarni amalga oshirish zaruratini yuzaga keltirdi.

Mazkur Strategiyaning ishlab chiqish jarayonidagi Jahon banki bilan hamkorlik, xususan, islohotlar jarayonidagi asosiy tavakkalchiliklar va ularni minimallashtirishga qaratilgan choralarni ishlab chiqish maqsadida boshqa davlatlarda amalga oshirilgan bank tizimidagi islohotlarning ijobiy va salbiy tomonlarini o'rganishga qaratildi va natijada muhim xulosalar shakllantirildi.

*Birinchi*dan, bank tizimida davlat ulushining qisqartirilishi bank tizimini rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi.

*Ikkinchi*dan, davlat ishtirokidagi banklarni xususiylashtirish jarayoni ilg'or texnologik yechimlar va bank ishining ilg'or tajribasi, shuningdek yetarli moliyaviy imkoniyatlarga ega nufuzli va sifatli aksiyadorlarga yo'l ochishi lozim.

*Uchinchi*dan, islohotlar muvaffaqiyatining asosiy shartlaridan biri bu – banklarni qisman emas to'liq xususiylashtirishdir.

*To'rtinchi*dan, davlat ishtirokidagi banklar va real sektor korxonalarini parallel ravishda isloh qilish iqtisodiy islohotlarning samaradorligida muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga davlat ishtirokidagi korxonalarini restrukturizatsiya qilish va xususiylashtirish ularning iqtisodiy imkoniyatlarini oshirib, banklar faoliyatiga davlat aralashuvini keskin qisqartiradi.



*Beshinchidan*, islohotlar davrida davlat ishtirokidagi korxonalarining kreditlashga bo‘lgan talabini cheklab qo‘ymaslik hamda moliyaviy ommaboplikni ta‘minlash uchun ayrim banklarda davlat ulushini saqlab turish maqsadga muvofiq.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, mamlakatimizdagi bank tizimi kundan kunga rivojlanib, xizmat ko‘rsatish sohalari ham kengayib bormoqda. Bundan tashqari banklar faoliyatini yaxshilash bo‘yicha ko‘plab qonunlar va hukumat qarorlari ishlab chiqilib amalga kiritilmoqda. Bu harakatlarning barchasi mamlakat aholisini sifatli va qulay xizmatlar bilan ta‘minlash, mamlakatning iqtisodiy holatini yaxshilab Jahon savdo tashkilotiga qo‘shilish uchun zamin yaratmoqda.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni
3. Aliyeva, Musaffo. "Economic management mechanism of innovation processes in industrial enterprises." *International Bulletin of Applied Science and Technology* 3.11 (2023):287-290.
4. Aliyeva, Musaffo. "Formation of management system of scientific and technological development of industrial enterprisesforeign experiences and possibilities of their application in uzbekistan." *Центральноазиатский журнал образования и инноваций* 2.11 Part 2 (2023): 14-20.
5. Aliyeva, Musaffo, and Farrux Qodirov. "Development of scientific and technological system of management of industrial enterprises." *Science and innovation in the education system* 2.7 (2023): 113-126.
6. Qodirov, Farrux. "Econometric modeling of medical services in the territories." *International Conference on Information Science and Communications Technologies ICISCT.2022*